



Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-dekabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 147 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 132 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 29 577,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2 675,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 21 787,3 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 5 114,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 911 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 899 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 22 389,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 17 749,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,3 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 79,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Chortoq (4,8 m), Norin (128,1 %) va Namangan tumani (173,3 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 304 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 298 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi

25 261,6 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.